

“YOLG‘ONCHI FARISHTALAR” VA UNING POETIK XUSUSIYATLARI.

Egamberdiyeva Gulhayo

Qoraqalpoq davlat universiteti

Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17383297>

Annotatsiya: Mazkur tezisda Aziz Nesinning “Yolg‘onchi farishtalar” hikoyasi tahlil qilinib, undagi poetik xususiyatlar, yozuvchining kinoyaviy va satirik uslubi yoritilgan. Asarda inson tabiatidagi ikkiyuzlamachilik, soxta “ezgulik” va ijtimoiy illatlar hajv orqali ochib berilgani ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: poetik xususiyat, kinoya, hajv, satira, ijtimoiy tanqid, yozuvchi uslubi.

Hajviy asarlar ijtimoiy hayotni mavjud illatlardan tozalash hamda insonning ma’naviy-ruhiy olamini takomillashtirgan holda umum bashariy fazilatlar sohibi bo‘lib voyaga yetishishida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, hajviy talqin adabiyotda doimo yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Badiiy adabiyotda hajv yaratish ijodkordan juda katta mahorat talab qiladi. Bu narsa o‘zbek adabiyotida ham o‘ziga xos an’ana sifatida davom etib kelmoqda. Adabiyotimizda voqelikni hajviy talqin qilish masalasining tarixiy tadriji A.Navoiy, Mashrab, T.Farog‘iy, Mahmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O‘tar, Hamza, A.Qodiriy, G‘.G‘ulom.A.Qahhor. S.Ahmad, S.Siyoev, A.Obidjon kabi yozuvchi va shoirlar ijodibilan bog‘liq. XX asr o‘zbek adabiyotidagi hajviy asarlarning yetuk namunalarini A.Qodiriy ijodida kuzatish mumkin. A.Qodiriyning 20-yillarda dunyoga kelgan “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nimadeydi?” kabi hajviy asarlari adabiyotimizda yangi voqea bo‘ldi¹. Adib mazkur asarlarda o‘z davrining qora illatlarini tag matn orqali ochib berishga harakat qilgan, muallif hayotidagi muayyan salbiy hodisalarni shunchaki fosh etib qo‘ymasdan, xarakter va hodisalami xolis turib, butun murakkabligi va ziddiyatlari realistik tarzda tasvirlashga erishgan. Ma’lumki, “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” asari 1923-1927-yillar oralig‘ida yozilgan va “Mushtum” jurnalida e’lon qilib borilgan. Mazkur asarda adib “Ko‘pdan beri haqiqiy hayot bilan aloqasi uzilgan. Madrasa xurofoti bilan miyasi g‘ovlagan” mahalla imomi Kalvak Maxzum sarguzashtlarini aks ettiradi. “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” asari qahramoni Toshpo‘lat esa tabiatida ko‘p nobop jihatlari, ya’ni savodsiz, omi, hayotda yo‘lini topa olmagan, ma’rifatsizlik oqibatida u ko‘p narsalarning ma’nosiga tushunmaydi, turmush chigalliklarini yecha olmaydi kishi sifatida talqin qilinadi. Hajvchi ijodkor o‘z iste’dodini ana shu maqsadga yo’naltirar ekan, voqelikni chuqur kuzatadi, insonlar xarakterini tubdan o‘rganadi. Hayotning mavjud barcha jabhalarida inson xarakterining rangbarang qirralarini namoyish etadi. Ana shu xarakter xislatlarining eng yetakchi xususiyati hajviy tiplarga asos bo‘ladi. Hajviy ijodning ana shunday mashaqqatli yo‘lidan og‘ishmay odimlagan Ne‘mat Aminov o‘z hikoyalarida laganbardorlar, xushomadgo‘ylar, yulg‘ichlar, xiyonatkorlar, befahmlar, ikkiyuzlamachilarning xatti-harakatidan zaharxandalik bilan kuladi. Biroq u o‘z kulgisini oshkora emas, balki hikoya qahramonlarining nutqi va munosabati vositasi orqali namoyon qiladi. Ijodkor qissadilogiyasiga “Yelvizak” va “Suvarak” deya timsoliy ma’no ega nom bergan. Anashunday mavzu tanlash hajviy qissaning ma’nosiga to‘la to‘kis uyg‘unlasha olgan, bu unsur esa asarlarning mohiyatini to‘g‘ridan to‘g‘ri anglashga imkon beradi. Sababi yelvizak ko‘zga unchalik ham

¹ Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- kurs talabasi Raximova Muyassarning “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanidan “O‘zbek jadid hajv maktabining taraqqiyot tamoyillari” mavzusida tayyorlagan

ko'rinmaydi, ammo kishini qattiq shamollashiga sabab bo'ladi, og'ir xastaliklarga yo'liqtiradi. Bashirjon Zaynishev va uning jonajon sheriklari, katta homiylari esa mamlakat ijtimoiy-ma'naviy hayotini bir chekkadan talon taroj qilgani yetmandek, xastalantiruvchi, xavfli yelvizak sanaladi. Suvarak esa, yozuvchi yozuvchi S.Ahmad ta'kidlaganidek. "Qorong'uda faol harakat" 30 qiluvchi hasharot. Bashirjon Zaynishev va uning hamtovoqlari jamiyatning suvarakmijoz o'g'rilari bo'lib, S.Ahmad bu haqda shunday yozadi: "Agar o'g'rilarni aqlli, aqlsiz toifalarga bo'lsak, eng aqllisi mayda o'g'ri ekani ma'lum bo'ladi. Arzimagan o'g'irlikni prokuror nazar-pisand qilmasligini, sudya jazosi bir shapaloq "ish" uchun ilmini xor qilmasligini mayda o'g'ri juda ham yaxshi biladi. Umuman olganda mayda o'g'ri hamma vaqt ko'z ilg'amaydigan, qonunning nazari tushmaydigan jinoyatlarni qiladi". "Yelvizak" qissasining bosh qahramoni Bashirjon Zaynishev ustomon, katta mansabdor shaxslarning xizmatini qilib, o'rtamiyona lavozimlarda ishlab keladi. Lekin lavozimlarda ham uzoq o'tirmaydi. Chunki o'zi rahbarlik qilgan tashkilot yoki korxonani tez fursatda "o'tirg'izadi". Ammo o'zi beminnat xizmatini qilgan "akaxon"lari ko'magida u boshqa lavozimlarga o'taveradi. Xullas, Bashirjon Zaynishev hamma vaqt viloyat miqyosidagi ko'plab tarmoqlarda boshliq bo'lib ishlagan, ularni talon - taroj qilgan universal rahbarlardan biridir. Asarda ana shunday hajviy tipning qismati to'la hal qilinmagan turli xil voqealar silsilasiga ulangan. Qissa uning madaniyat uyini boshqara olmaganligi uchun viloyat byurosida muhokama qilinishi bilan boshlanadi. Adib keyinroq ikkinchi qissa "Suvarakni" ni yozadi va bu qissada ham bosh qahramon Bashirjon Zaynishevning keying faoliyatini yorqin aks ettiradi. Yozuvchi ikkala qissani jamlab "Yolg'onchi farishtalar" nomi ostida bir jildga chop ettiradi. Yozuvchi N.Aminov "Yelvizak" va "Suvarak" deb nomlangan hajviy qissalarining har ikkalasida Bashirjon Zaynishevni asosiy qahramon sifatida belgilaydi. Albatta, qissa-dilogiyada boshqa personajlar ham bor. Ular Bashirjon Zaynishev tevaragiga mahkam yopishishadi. Shu sababdan sovet ittifoqi hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy, va madaniy-marifiy hamda siyosiy hayotidagi tanazzul yuz tutish, oqsaqlanish illatlarni birma bir fosh etishda Bashirjonning aniq bir hajviy obraz vazifasini o'tashini o'z zimmasiga oladi. Jamiyatdagi o'g'rilik, korrupsiya, maddohlik, yolg'onchilik, firibgarlik va tarbiyaviy buzuvchilik bilan halollik, durustlik hamda egrilik yashaydigan kishilar o'rtasidagi ziddiyat asarda faqat ana 31 shu tip bilangina muloqotda namoyon bo'ladi. Xuddi shu ma'noda u insoniylik sha'niga dog'tushiruvchi tiplar mohiyatini ochishda yozuvchiga katta imkonlar bergan. Darhaqiqat, badiiy talqinda haddan tashqari kuzatiladigan shaxsiyatiga xos qusurni izchil bo'rttirish o'quvchining g'ashiga tegadi. Xususan, ekspeditor Qurbonov bilan qishloqqa chiqqan Bashirjon Zaynishev xatti-harakatlari o'quvchining ensasini qotiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joiz: adib badiiy tasvir jarayonida muayyan nuqsonga yo'l qo'yadi. Negaki, ta'magir inson tabiatan xasis bo'ladi. Yozuvchi qahramonini rivojlantirmaydi, aksincha uni tanti, dovdir kishi tarzida gavdalantiradi. Aynan talqin haqqoniylixi xarakterni yorqin tip darajasiga ko'taradi. Qissada yetakchi obraz goh qo'rqqoq, goh tovlamachi, goh muttaha inson sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy namoyish personaj qiyofasi ikki muhim qirrasini-befarosat va kaltafahmlixi ko'rsatadi. "Bashirjonni shaharga chaqirishmagan edi. Aslida u oblast kasalxonasida bir haftadan beri qon bosimiko'tarilib, davolanib yotgan akaxoni Shamsi To'rayevichni borib ko'rishni xuddi shu kunga rejalashtirgan edi. Shuning uchunham u kabinetdan shoshilib chiqdi-yu, rayon markazi tomon yo'l oldi. Chavkar arig'i ustidagi mashhur choyxona odatdagidek gavjum. Bashirjon choyxona orqali o'tib, ariqning quyisidagi "Madaniy mollar" magazini oldida mashinasini yuvib turgan shofyori yoniga borarkan, ro'paradan unga jilmayib kelayotgan hazilkash do'sti

Qodirjonga ko'zi tushdi. Bashirjon uni yoqtirmas edi. Chunki Qodirjon doimo qayerdagi hazillarni, bo'lmag'ur gaplarni topib, uning jig'iga tegardi"². "Bashirjonning qaynonasi-Zevarxonga ona! Bechora kampir aytishicha, Zevarxonning g'am-anduxi oxiri uni yotgulik qildi. Bir necha kundan beri u sil kasalliklari shifoxonasida yotibdi. Uni ko'rishga faqat Bashirjon borib turadi. Bugun ham u ertalabki majlisni o'tkazib, man ijrokomga ketdim, deya idoradagilarga tayinladi-da, to'g'ri kasalxonaga yo'l oldi"³. Xullas, fahm-farosatsiz, jamiyatda fisq-u fasot ishlar qiladigan, o'maruvchi, mayda o'g'ri va yulg'ich kishilar tipini hajv ostiga olish Ne'mat Aminov ijodi uchun xosdir. Yozuvchi ushbu mavzudagi barcha asarlarida ixcham shaklda hajviy tipning muhim qirralarini aniq ravishda tasvirlash mahoratini puxta egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov.N. Qahqaha.-T.: Adabiyotvasan'at. 1987
2. Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 4- kurs talabasi Raximova Muyassarining "O'zbek adabiyoti tarixi" fanidan "O'zbek jadid hajv maktabining taraqqiyot tamoyillari" mavzusida tayyorlagan referati

² Aminov.N. Qahqaha.-T.: Adabiyotvasan'at. 1987. –B.43

³ Aminov N. Qahqaha. –T.: Adabiyot va san'at, 1987.-B.97-98